

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR



OPEN ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abdavaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Bo'laev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	32
Jumayev Olimjon Sadulloyevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO'QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG'IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO'LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O'RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA'MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLİYAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EGINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI.....	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ.....	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Boltayev Abror Sayitmuradovich

Alfraganus university

“Buxgalteriya hisobi va soliq” kafedrası mudiri,

DSc, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada firibgarlik holatlarini auditorlik tekshiruvlari orqali aniqlashning nazariy asoslari bayon qilingan. Jumladan, firibgarlik tushunchasi, firibgarlik holatlari va ularni yuzaga keltiruvchi risk omillari hamda joriy aktivlar bilan bog‘liq firibgarlik holatlarini aniqlashda qo‘llaniladigan tahliliy amallar tasniflangan holda tavsiflab berilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: firibgarlik, audit, auditor, auditorlik tekshiruvi, auditorlik amallari, tahliliy amallar, aktiv, joriy aktivlar.

Аннотация

В данной статье изложены теоретические основы выявления случаев мошенничества посредством аудиторских проверок. В частности, классифицировано понятие мошенничества, случаи мошенничества и факторы риска, вызывающие их, а также аналитические процедуры, используемые при выявлении случаев мошенничества, связанных с оборотными активами, и сформулированы выводы.

Ключевые слова: мошенничество, аудит, аудитор, аудиторская проверка, аудиторские процедуры, аналитические процедуры, актив, текущие активы.

Abstract

This article outlines the theoretical foundations for identifying fraud cases through audits. In particular, the concept of fraud, fraud cases, and the risk factors that cause them, as well as the analytical procedures used in identifying fraud cases related to current assets, were classified, and conclusions were formulated.

Keywords: fraud, audit, auditor, audit, audit procedures, analytical procedures, asset, current assets.

KIRISH

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, firibgarlik holatlari tashkilotlarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, investorlar ishonchining pasayishi va iqtisodiy xavfsizlikning zaiflashishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan auditorlar zimmasiga moliyaviy hisobotlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan firibgarlik holatlarini aniqlash, xavflarni baholash va ularning oldini olish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilash vazifasi yuklanadi. Ayniqsa, aktivlar auditida aktivlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni soxtalashtirish yoki ular bilan bog‘liq firibgarlik amaliyotlarini aniqlash hamda aniqlanmaslik xavfini minimallashtirish auditning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zero, aktivlar auditi natijasida firibgarlik holatlarini barvaqt aniqlash moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi, shaffofligi va haqqoniyligini ta‘minlashda muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Albatta, 240-sonli “Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari” nomli auditning xalqaro standarti (AXS)da «Firibgarlik – rahbariyat, boshqaruv yuklatilgan shaxslar, xodimlar yoki uchinchi shaxslar orasidan bitta yoki bir nechta shaxslar tomonidan aldash yo‘li bilan nohaqqoniy va noqonuniy manfaat ko‘rish maqsadida ataylab qilinadigan harakat» [1] sifatida ta’riflanadi. Ushbu standartda firibgarlikning asosiy xususiyatlari, auditorning maqsad va majburiyatlari tizimli ravishda tasniflangan holda yoritilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlarning ilmiy tadqiqotlarida auditorlik faoliyatida firibgarlik holatlari, ularning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillar, aniqlash metodlari hamda bartaraf etish imkoniyatlari atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, O.M. Nikulina va M.V. Vrublevskayalar [2] joriy aktivlar bilan bog‘liq korporativ firibgarlik sxemalarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etar ekan, joriy aktivlar auditida eng ko‘p uchraydigan manipulyatsiya shakllari korxonaning eng likvid aktivlari – pul mablag‘lari va debitor qarzlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, debitor qarzlari bo‘yicha firibgarlik holatlari faqatgina tushumning kamayishi yoki pul oqimlarining kamayishiga emas, balki korxonaning moliyaviy barqarorligi va umumiy samaradorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soha mutaxassisi A. Volodinning ta’kidlashicha, “Firibgarlik – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan pul, mulk yoki xizmatlarni noqonuniy tarzda qo‘lga kiritish, pul to‘lash yoki xizmat ko‘rsatishdan bo‘yin tovlash, shuningdek shaxsiy yoki tijorat manfaatlarini ko‘zlab qasddan amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir” [3]. Muallif firibgarlikni mazmun-mohiyati va amalga oshirish mexanizmiga ko‘ra uchta asosiy toifaga ajratadi: aktivlarni o‘g‘irlash; korrupsiya va moliyaviy hisobot ma’lumotlarini buzib ko‘rsatish. Shuni ta’kidlash joizki, A. Volodinning tadqiqotlari asosan firibgarlik xavfini boshqarish tizimining yetarliligi va samaradorligini ta’minlashda ichki audit xizmatining firibgarlikni oldini olishdagi rolini tavsiflash bilan cheklangan bo‘lib, firibgarlikni aniqlash va bartaraf etishning kompleks mexanizmlari to‘liq yoritilmagan.

A.J. Tuychiyev boshchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan auditorlik tekshiruvi jarayonida firibgarlikni aniqlash masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, “Firibgarlik bu qalloblikni qo‘llash bilan bog‘liq oldindan bilib amalga oshirilgan harakatdir. Firibgarlik moliyaviy hisobotni jiddiy o‘zgartirib yuboradi. Noto‘g‘ri o‘zgartirishning ikki turi auditorlik xulosasida firibgarlik sifatida ko‘rib chiqiladi: a) aktivlarni noqonuniy o‘zlashtirishni noto‘g‘ri ko‘rsatish natijasida yuzaga kelgan firibgarlik; b) moliyaviy hisobot tuzilayotganda firibgarlik natijasida yuzaga kelgan noto‘g‘ri ko‘rsatishlar” [4]. Ularning fikriga ko‘ra, firibgarlik moliyaviy hisobotlar ishonchliligiga jiddiy zarar yetkazadi va hisobotdagi qator ko‘rsatkichlarning buzilishiga sabab bo‘ladi.

E.D. Muydinov auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarida moliyaviy firibgarlikni aniqlash masalalarini tadqiq qilib, auditda firibgarlikni o‘rganish jarayonining maqsadini quyidagicha ta’riflaydi: “Audit tekshiruvining yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan firibgarlikni o‘rganish jarayonining


maqsadi mijoz korxonada aktivlarni o'g'irlash, buxgalteriya va soliq hisobotlarini buzib ko'rsatish, korrupsiya hamda firibgarlik chizmalarini aniqlash va keyinchalik ulardan saqlanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat" [5]. Shuningdek, muallif auditda firibgarlikni aniqlashda qo'llaniladigan usullarni "haqiqiy nazorat usullari", "hujjatli usullar" va "hisob-tahliliy usullar"ga ajratgan holda tavsiflab beradi.

METODOLOGIYA

Firibgarlik holatlarini auditorlik tekshiruvlari orqali aniqlashning nazariy asoslarini tadqiq qilib o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning firibgarlik holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasidagi yondashuvlari ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlagan holda, milliy va xalqaro tajribalarni o'rganish asosida firibgarlik holatlarini quyidagi yo'nalishlar kesimida tasniflash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Firibgarlik holatlarining tasniflanishi¹

Rasmda firibgarlik holatlarining birinchi yo'nalishi sifatida keltirilgan aktivlarni o'zlashtirish amaliyotda eng ko'p uchraydigan firibgarlik turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korxonaning joriy aktivlarini o'zlashtirish bilan bog'liq holatlar xavf darajasi yuqori bo'lgan sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, joriy aktivlarni o'zlashtirishga oid firibgarlik holatlarini aniqlash, ularni audit jarayonida baholash va bartaraf etish mexanizmlariga batafsil to'xtalib o'tmoqchimiz.

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Joriy aktivlar auditi jarayonida auditor firibgarlikka olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni, ya'ni firibgarlik sodir etishga moyillik (bosim), uni amalga oshirish uchun imkoniyat hamda firibgarlikni oqlashga xizmat qiluvchi holatlarni aniqlashi mumkin. 240-sonli AXS "Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari"da ayni shu uch omil firibgarlik natijasidagi muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan vaziyatlar sifatida ko'rsatiladi (1-jadval).

1-jadval.

Joriy aktivlarni noqonuniy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladigan buzib ko'rsatishlarga oid risk omillarining tasniflanishi¹

Firibgarlik riski omillari tasnifi	Firibgarlik riski omillari tavsifi
Firibgarlikka moyillik yoki bosim	Shaxsiy moliyaviy majburiyatlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklar rahbariyatga, shuningdek naqd pul yoki o'g'irlanish ehtimoli yuqori bo'lgan boshqa joriy aktivlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan xodimlarga joriy aktivlarni noqonuniy o'zlashtirish uchun ma'lum darajada bosim yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyekti rahbariyati bilan mazkur aktivlardan foydalanish huquqiga ega xodimlar o'rtasidagi salbiy yoki kelishmovchilikka asoslangan munosabatlar ham ushbu xodimlarda o'z vakolati doirasidagi joriy aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishga moyillik shakllantirishi ehtimolini oshiradi.
Firibgarlikka imkon yaratiladigan sharoitlar	Joriy aktivlarning ayrim xususiyatlari ularning noqonuniy o'zlashtirilishiga nisbatan ta'sirchanligini oshiradi. Xususan, firibgarlik xavfi quyidagi holatlarda yuqori bo'ladi: • <i>yirik hajmdagi naqd pul aylanmasi mavjud bo'lganda</i>, bu nazoratni qiyinlashtirib, talon-toroj qilish ehtimolini kuchaytiradi; • <i>qiymati yuqori va oson tashib ketiladigan tovar-moddiy zaxiralar mavjud bo'lganda</i>, ularni o'g'irlash yoki yashirincha almashtirish imkoniyati ortib boradi; • <i>oson almashtiriladigan va identifikatsiyasi qiyin joriy aktivlar mavjud bo'lganda</i>, ularning haqiqiy harakati ustidan nazorat susayadi.
Firibgarlikni oqlash	Firibgarlikka qo'l urishda ishtirok etuvchi shaxslar o'z xatti-harakatini turli yo'llar bilan oqlashga harakat qiladi. Masalan, "bu vaqtinchalik", "men qilayotgan ish kompaniyaga zarar yetkazmaydi", "boshqalar ham shunday qiladi"ku kabi ichki yondashuvlar firibgarlikni amalga oshirishni asoslash vositasiga aylanadi.

Shu nuqtayi-nazardan, joriy aktivlar auditida auditor ushbu uch omilning mavjudligini baholash orqali firibgarlik oqibatida paydo bo'luvchi muhim buzib ko'rsatishlar xavfini aniqlaydi va audit strategiyasi hamda auditorlik tekshiruvda qo'llaniladigan audit amallarini shakllantiradi.

Shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, joriy aktivlar bilan bog'liq firibgarlik holatlarini aniqlash maqsadida auditor qator tahlil va nazorat amallarini qo'llashi mumkin. Jumladan:

- hisobot davri oxirida naqd pullar va qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish;
- debitorlar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlash uchun tashqi so'rovlar yuborish;
- tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha kamomad holatlarini turlar va joylashuv bo'yicha tahlil qilish hamda kamaytirishning asoslilikini tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rib chiqish;
- yetkazib beruvchilar ro'yxati va xodimlar ma'lumotlari o'rtasida manzil yoki

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

identifikatsion raqamlar bo'yicha o'xshashliklarni avtomatlashtirilgan tahlil orqali aniqlash;

- savdo chegirmalari va tovarlar qaytishi bo'yicha noodatiy holatlarni tahlil qilish;

- shartnomalar amalga oshirilishini tasdiqlash maqsadida uchinchi shaxslarga so'rovlar yuborish;

- katta miqdordagi xarajatlarning asoslilikini baholash hamda rahbariyat tomonidan taqdim etilgan xarajat hujjatlarini tekshirish;

- buxgalteriya yozuvlaridagi ziddiyatli yoki tasdiqlanmagan ma'lumotlarini me'yoriy-huquqiy talablar asosida qayta ko'rib chiqish.

Ushbu audit amallari auditorga joriy aktivlar bo'yicha firibgarlik ehtimolini baholash va muhim buzib ko'rsatishlarni aniqlash imkonini beradi.

Albatta, joriy aktivlar bilan bog'liq firibgarlik holatlarini aniqlashda, ayniqsa shubhali operatsiyalar monitoringi va firibgarlik xavfini baholash jarayonlarida ichki nazorat doirasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun nazorat tizimini samarali tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda auditorlik tekshiruvi jarayonida firibgarlik holatlarini aniqlash uchun turli tahliliy usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bizning fikrimizcha, joriy aktivlar auditida ular bilan bog'liq firibgarlik xavflarini aniqlashda quyidagi tahliliy amallardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, joriy aktivlarni noqonuniy o'zlashtirish bilan bog'liq firibgarlik holatlarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan tahliliy jarayonlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining ishonchlilikini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu amallar firibgarlik holatlari umuman mavjud emasligiga to'liq kafolat bermaydi, balki ularning sodir etilishi ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, firibgarlik holatlarini auditorlik tekshiruvlari orqali aniqlashning nazariy asoslari borasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

“firibgarlik” tushunchasi va firibgarlik holatlarining tasniflanishi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning asarlaridagi ta'rif va yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilib o'rganish natijasida firibgarlik holatlari «Aktivlarning noqonuniy o'zlashtirilishi», «Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi» hamda «Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish» yo'nalishlariga ajratilgan holda tasniflandi va tavsiflab berildi; auditning xalqaro standartlariga muvofiq joriy aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlarga tegishli risk omillari “Firibgarlikka moyillik yoki bosim”, “Firibgarlikka imkon yaratiladigan sharoitlar” va “Firibgarlikni oqlash” ko'rinishida tasniflangan holda tavsiflab berildi (2-jadval).

2-jadval.

**Joriy aktivlar bilan bog‘liq firibgarlik holatlarini aniqlashda
qo‘llaniladigan tahliliy amallar¹**

Tahliliy amallar nomi	Tahliliy amallar tavsifi
Joriy aktivlarni sotib olish va o‘tkazish bo‘yicha yirik shartnomalar tahlili	Bunday tahliliy amallar joriy aktivlarni o‘zlashtirishga oid firibgarlik holatlarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu jarayonda quyidagi masalalar o‘rganiladi: - joriy aktivlar bilan bog‘liq yirik shartnomalarning tahlili, jumladan qarz olish va berish, kafillik va kafolatlar berish, talab huquqidan voz kechish, qarzni o‘tkazish, mol-mulkni ishonchli boshqarishga topshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyekting tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq aksiyalar yoki ulushlar bilan bog‘liq operatsiyalarni baholash; - joriy aktivlarni ijaraga berish yoki garovga qo‘yish kabi operatsiyalarni tahlil qilish, chunki bunday harakatlar aktivlarning qasddan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli omil sifatida qaraladi.
Aktivlar qiymatini buzib ko‘rsatish holatlarini tahlil qilish	Ushbu tahliliy amallar moliyaviy hisobotda joriy aktivlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning noto‘g‘ri yoki soxta aks ettirilganligini aniqlashga qaratilgan. Tekshiruv jarayonida quyidagi yo‘nalishlar o‘rganiladi: joriy aktivlar tarkibida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan soxta aktivlarni aniqlash; aktivlar samaradorligini baholash maqsadida ularning korxonaning ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki va daromad keltirish qobiliyatini tahlil qilish; aktivlarni bozor sharoitida sotish imkoniyatlarini baholash hamda ularning likvidligini aniqlash; joriy aktivlarni yaratish yoki sotib olishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash.
Marketing tahlili	Mazkur tahliliy amallar joriy aktivlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq firibgarliklarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: narxlash strategiyasi va asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar (tovar va xizmatlar narxi, mehnat haqi, foiz stavkalari)ning asoslanganligini baholash; mahsulotlarni taqsimlash va TMQLarni xarid qilish jarayonlarida vositachilar ishtirokidan kelib chiquvchi firibgarlik xavflarini aniqlash; joriy aktivlarga oid shartnomalarni tahlil qilish, xususan ularning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va shartnoma narxlarining bozor narxlariga mosligini baholash.
Joriy aktivlar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish	Joriy aktivlar holati va ulardan foydalanish samaradorligining pasayishi (TMQ va debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining kamayishi, aylanish davrining uzayishi, baholash rezervlarining tashkil etilmaganligi, muddati o‘tgan debitorlik qarzlar ulushining ortishi) firibgarlik ehtimolini ko‘rsatuvchi indikatorlar sifatida baholanadi. Shuningdek, moddiy resurslar qaytimini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega: ishlab chiqarish quvvati yoki maydon birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmlaridagi asoslangan bo‘lmagan og‘ishlar qasddan amalga oshirilgan harakatlarning bilvosita belgisi bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish zaxiralari sarfi me‘yorlarining tarmoq me‘yorlariga muvofiqligini tizimli nazorat qilish talab etiladi.
Joriy aktivlar daromadliligi va rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili	Joriy aktivlar daromadliligi va rentabellik ko‘rsatkichlari tahlilida quyidagi tahliliy amallar o‘tkaziladi: joriy aktivlar daromadliligi va rentabellik ko‘rsatkichlarini asosiy raqobatchilar va kontragentlarning analog ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilish; joriy aktivlar daromadliligi va rentabelligining dinamikasini tahlil qilish va undagi nomutanosib o‘zgarishlarni aniqlash.

Joriy aktivlar auditida ular bilan bog‘liq firibgarlik xavflarini aniqlashda «Joriy aktivlarni sotib olish va o‘tkazish bo‘yicha yirik shartnomalar tahlili», «Aktivlar

¹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qiymatini buzib ko'rsatish holatlarini tahlil qilish», «Marketing tahlili», «Joriy aktivlar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish» hamda «Joriy aktivlar daromadliligi va rentabellik ko'rsatkichlari tahlili» kabi tahliliy amallardan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tahlil va tavsiflar auditorlik tekshiruvlarida firibgarlik holatlarini aniqlash hamda ularga qarshi samarali audit choralari ishlab chiqish uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аудитнинг халқаро стандарти (240-сон АХС) Молиявий ҳисоботлар аудитидаги фирибгарликка нисбатан аудитор мажбуриятлари. https://api.mf.uz/media/menu_attachments/1_MJ06bDi.pdf

2. Никулина О.М., Врублевская М.В. Выявление аудитором корпоративных схем мошенничества с оборотными активами. Проблемы учета и финансов. № 25, 2017. 42-45 ст.

3. Володин А. Противодействие корпоративному мошенничеству: выстраивание линии защиты с помощью внутреннего аудита. Журнал Акционерное общество, № 4, 2023 г. <https://ao-journal.ru/protivodeystvie-korporativnomu-moshennichestvu-vistraivanie-linii-zashchiti-s-pomoshchyu-vnutrennego-audita#ftnt6>

4. Audit: Darslik / A.Tuychiev, I.Qo'ziev, O.Masharipov, A.Avlokulov, M.Yaqubov, I.Sherimbetov, I.Avazov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 129 bet.

5. Муйдинов Э.Д. Халқаро аудит стандартларига кўра аудиторлик текширувларида молиявий фирибгарликни аниқлаш масалалари. Та'лим va rivojlanish tahlili. 12 / Dec – 2024. 364-371 бетлар.

6. Boltaev A. S. Improvement of methodological aspects of recognition and assessment of biological assets //Frontline Marketing, Management and Economics Journal. – 2023. – T. 3. – №. 12. – C. 30-44.

7. Boltaev A. Development of accounting policy in organizing activity of agricultural sector //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 28-35.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**